

BOLALARGA ARAB TILINI O‘RGATISHDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR

Anorboyeva Yulduz Jamoliddin qizi

O‘zJTU 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Maqolada bolalarga arab tili fanini o‘qitishda turli metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilar faolligini oshirish, xotirasini mustahkamlash usullari va vositalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar

Metod, charxpalak, saroy, sehrli tong, diqqatni jamlash, mashq.

Barchamizga ma‘lumki arab tili jahon tillaridan biri bo‘lib, 300 000 (uch yuz million)ga yaqin odam bu tilda so‘zlashadi. UNESCO axborotiga ko‘ra arab tili hozirgi kunda BMT kengashida ish yuritish uchun tasdiqlangan olti jahon tilining biri hisoblanadi. Bu tilda so‘zlar soni 12 000 000 (o‘n ikki million)dan ziyod. At-Termiziy, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, al-Buxoriy kabi yurtimizning faxri bo‘lgan bobokalonlarimiz arab tilini juda yaxshi bilishgan. Keyinchalik SSSR ta‘sirida yurtdoshlarimizning arab-tiliga bo‘lgan qiziqishlari susaygan. Lekin prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich bugungi kunda arab tilini o‘rganishimizga keng imkoniyat yaratib bermoqda. O‘zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich va Misr arab respublikasi prezidenti Abdulfattoh as-Sisining Qohiradagi “Al-Ittihodiya” saroyida 21-fevral kuni o‘tkazilgan muzokaralarini oladigan bo‘lsak, bunda Arab yili mutaxassislarini tayyorlash sohasida hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan kelishuvga erishilgan. O‘zbekiston prezidenti 2024-yilda Arabshunoslik global forumini birgalikda taklif etish tashabbusini ilgari surgan.

Bugungi kunda Yurtimizda arab tilini o‘rganishga bo‘lgan talablar ko‘paymoqda. Xususiyl maktablarda arab tili alohida fan sifatida o‘tilmoqda. Arab tili biroz murakkabroq til bo‘lganligi uchun ularga bu tilni turli xil metodlar, o‘yinlar orqali o‘rgatsak yaxshi samara beradi.

Birinchi navbatda o‘quvchilarda arab tili qiyin degan tushunchani yo‘qotish. Arab harflarining 4-xil ko‘rinishi bor: alohida ko‘rinishi, so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxirida ko‘rinishi. Lekin bu arab alifbosi qiyin degani emas. Umuman olganda bizning lotin alifbomizda ham harflarning to‘rt xil ko‘rinishi bor. Katta harf, kichkina harf, yozma harf, bosma harf. Arab harflari katta- kichik harflarga ajratilmaydi. Yozma va bosma ko‘rinishlari ham bir-xil.

Keyingi qiladigan ishimiz bolalarni qalbida arab tiliga muhabbat uyg‘otish. Biz nima uchun arab tilini yaxshi ko‘rishimiz va o‘rganishimiz kerak?

1. Muqaddas kitobimiz “QUR‘ONI KARIM” arab tilida yozilganligi uchun. (Kitobni tushunib o‘qish uchun arab tilini o‘rganish kerak)

2. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) arab bo‘lganlari uchun.

3. Jannatda odamlar arab tilida gaplashganlari uchun.

4. Har bir musulmon uchun farz hisoblangan “Haj” amalini arab mamlakatlarida ya’ni Makka va Madinada amalga oshirganimiz uchun.

Bolalarga arab tilini o‘rgatayotganda yaxshi natijaga erishish uchun turli metodlar va didaktik o‘yinlardan foydalanilsa, samaradorlik ortadi. Arab tili darsi boshlanganda o‘qituvchi avvalo darsni boshlashdan oldin bolalarni diqqatini jamlab olish uchun diqqatni jamlavchi metodlardan foydalanishi kerak. Masalan “Lola, atirgul, chinnigul” metodi.

“Lola, atirgul, chinnigul” metodi

Bunda o‘qituvchi barmoqlarini mana shu uchta gullarga qiyoslab oladi. Barmoqlarini musht qilib ko‘rsatsa atirgul, barmoqlarini ochgan holda ko‘rsatsa lola, bitta ko‘rsatkich barmog‘ini ko‘rsatsa chinnigul bo‘ladi. O‘qituvchi barmoqlarini mana shu uch xil holatda, ketma-ketlikda ko‘rsatadi. O‘quvchilar uni topishadi. O‘qituvchi harakatni tezlashtiradi, o‘quvchilar ham tezlashadi. Bu metod orqali o‘quvchilarning diqqati jamlanadi. Darsni boshlashdan oldin diqqatni jamlovchi metodlardan foydalanilsa o‘quvchilar yangi bilimni o‘zlashtirishlari oson bo‘ladi.

Arab alifbosini o‘rgatayotganimizda “O‘zing yasa” metodidan foydalanishimiz mumkin.

“O‘zing yasa” metodi

Bunda plastilin va plastilin doskachasi kerak bo‘ladi. Bolalar plastilindan doskachaga o‘rganilgan harfni yasaydi. O‘qituvchi harfning qaysi o‘rinda kelganini aytadi, bolalar harfning o‘sha ko‘rinishini yasaydi. Masalan, o‘qituvchi “ب” ba harfini o‘tdi. O‘qituvchi bolalarga ba harfning alohida ko‘rinishini yasang, deydi bolalar yasashadi. Ba harfning so‘z oxiridagi yoki so‘z o‘rtasidagi ko‘rinishini yasang, deydi bolalar yasashadi. Bu metod orqali bolalarning ijodkorlik, yaratuvchanlik, fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Arab tilida harflar mavzusi tugagach, harflar mavzusini mustahkamlash uchun “Sehrli tong” metodidan foydalanilsa, yaxshi samara beradi.

“Sehrli tong” metodi

Doskaga tabiat manzarasi tasvirlangan plakat ilinadi. Bunda gullar, o‘t-o‘lanlar, qushlar, kattakon charaqlab turgan quyosh tasvirlangan bo‘ladi. Lekin ularning usti bulutlar bilan to‘siq qo‘yiladi. Har bir bulut ustiga biror bir harfning to‘rtta ko‘rinishida bittasi yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar chiqib bulutni tanlaydi. Bulutda qaysi harf yozilgani va harfning qaysi ko‘rinishi ekanligini topadi. To‘g‘ri topgan o‘quvchilar bulutlarni olib qo‘yishadi. Topa olmasa bulut joyida qoladi. Hamma bulutlar olingach charaqlab turgan quyoshli tong manzarasi paydo bo‘ladi.

Arab tilida so‘zlar muzakkar va muannas jinsga bo‘linadi. Bu mavzuni tushuntirayotganda o‘qituvchi “Ikki saroy” metodidan foydalanishi mumkin.

“Ikki saroy” metodi

Bunda o‘qituvchi ikkita uyning maketini yasab keladi. Bir uyning nomini Muzakkar (erkaklar) uylar, ikkinchi uyning nomini Muannas (ayollar) uylar deb nomlashadi. Lug‘atdagi yangi so‘zlar alohida-alohida qilib qog‘ozlarga yozib kelinadi. O‘quvchilar so‘zlarni bittadan olib muzakkar yoki muannasga ajratadi. Muzakkar so‘z yozilgan qog‘ozni Muzakkar uyga, muannas so‘zlar yozilgan qog‘ozni Muannas uylarga solishadi. Bu metod o‘quvchilarni topqirlikka undaydi.

Arab harflari shamsiy (quyosh) va qamariy (oy) harflarga bo‘linadi. O‘qituvchi shamsiy va qamariy harflar mavzusini o‘tayotganda “Bir daqiqa” va “Musobaqa” metodlaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Bir daqiqa” metodi

O‘qituvchi shamsiy va qamariy harflar mavzusini tushuntirib bergandan keyin o‘quvchilarni ikki guruhga bo‘lib oladi. Bir daqiqa ichida birinchi guruh 14 ta shamsiy harflarning har biriga bittadan so‘z yozadi. Ikkinchi guruh 14 ta qamariy harflarning har biriga bittadan so‘z yozishlari kerak. Qaysi guruh birinchi bo‘lib va to‘g‘ri bajarsa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi. Bu metod orqali o‘quvchilar mavzuni yaxshiroq tushunishadi. O‘quvchilarning tezkorligi oshadi.

“Musobaqa” metodi

Bu metodda musobaqa o‘quvchilar o‘rtasida bo‘ladi. O‘qituvchi o‘rganilgan so‘zlardan biror so‘z aytadi. O‘quvchilar tezkorlik bilan bu so‘zning birinchi harfi shamsiy yoki qamariy harf ekanligini topishlari kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarning javob berish tezligini samalyot, mashina, velosipedlarga taqqoslab baholaydi.

Samaliyot-“5“

Mashina -“4“

Velosiped -“3“

Bu metod o‘quvchilarni tez fikirlashga o‘rgatadi.

“Charxpalak” metodi

Bu metodda o‘quvchilar doira shaklda o‘tirishadi. Har bir o‘quvchiga qog‘oz va ruchka beriladi. O‘quvchilar bittadan so‘z bittadan so‘z o‘ylab, o‘ylagan so‘zining birinchi harfini qog‘ozga yozishadi. Keyin o‘quvchilar bir-birlari bilan qog‘oz almashishadi. Hamma qog‘ozlarda bittadan harf yozilgan bu harfdan qanday so‘z yasash mumkinligini o‘ylab, o‘ylagan so‘zini ikkinchi harfini yozishadi. Shunday qilib charxpalak aylanganidek qog‘ozlar ham har bir daqiqada aylanadi. Oxirida hammaning qog‘ozi o‘ziga qaytib keladi. O‘quvchilar o‘ylagan so‘zlari yozilganmi, boshqa so‘z kelib chiqqanmi ko‘rishadi. Bu metod o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi.

“Xotira mashqi” metodi

Bu metodni qo‘llashda o‘qituvchi bitta arabcha so‘z aytadi. O‘quvchi ustoz aytgan so‘zni takrorlab, yoniga o‘zi yana bitta so‘z qo‘shib aytadi. Ikkinchi o‘quvchi aytilgan ikki so‘zni takrorlab, yoniga o‘zi ham so‘z qo‘shadi. Shu tariqa o‘quvchilar oldin aytilgan so‘zlarni takrorlab, yangi so‘z qo‘shib ketaveradi. Qaysi o‘quvchi adashsa o‘sha o‘quvchi o‘yinni tark etadi. Bu metod o‘quvchilarni xotirasini mustahkamlaydi.

“O‘rgamchak to‘ri” metodi

O‘rgamchak to‘ri metodini qo‘llashda uzunroq ip kerak bo‘ladi. O‘qituvchi bironta o‘quvchini tanlab uni qo‘liga ip beradi. O‘quvchi biror tovush aytadi va ipning bir uchini o‘zida olib qolib, ikkinchi uchini o‘zi xohlagan birorta o‘quvchiga beradi. Ikkinchi o‘quvchi aytilgan tovushni shamsiy yoki qamariy harf ekanligini aniqlab, ipni o‘ziga kelgan joyini ushlab, uchini o‘zi xohlagan o‘quvchiga beradi. Uchinchi o‘quvchi aytilgan tovush bilan boshlanadigan bitta so‘z aytadi va bu o‘quvchi ham ipning uchini o‘zi xohlagan o‘quvchiga

beradi. To‘rtinchi o‘quvchi aytilgan so‘zni muzakkar yoki muannas jinsda ekanligini aniqlaydi. Bu o‘quvchi ham ipning uchini boshqa o‘quvchiga beradi. Beshinchi o‘quvchi aytilgan so‘zni qatnashtirib gap tuzadi.

Arab tili bolalar uchun murakkab tuyilishi mumkin. Lekin darsda o‘tilgan mavzuga mos metodlar va didaktik o‘yinlardan o‘rnida foydalanilsa, o‘quvchilarning bu tilga qiziqishlari va tilni o‘rganish samaradorligi ortadi. Turli qiziqarli o‘yinlar bilan o‘quvchilarning mavzuni tushunishi osonlashadi. Oddiy o‘tilgan dars bilan didaktik o‘yinlar va metodlardan foydalanib o‘tilgan darsning o‘rtasida albatta juda katta farq bor. Har kuni bir xil ovqat yeyish insonlarning medasiga tekkani kabi, darsdagi bir xillik ham o‘quvchilarni zeriktiradi. Darsda metod qo‘llaganda faqat bitta metodni qo‘llayverish emas, balki mavzuga mos uning mohiyatini ochib beradigan turli xil metodlardan foydalanish kerak. Metodlardan foydalanish o‘quvchilarni fikrlash qobilyatini oshishiga, tezkorlikka, chaqqonlikka, topqirlikka, ijodkorlikka, yaratuvchanlikka, xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Arab-tili boshlang‘ich fonetika kursi 3-4-bet
2. Xabardor.uz <https://xabardor.uz>
3. you tube Dilafuz Xidoyatova
4. Telegram Messenger “Mahoratli pedagog” Rasmiy kanal